



UDK: 81'23:821.512.133

Muxabbat M.KURBANOVA,

F.f.d., professor O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: qurbonova2007@mail.ru. ORCID: 0009-0003-9162-0044

Nilufar A.TOSHO‘LATOVA,

Tayanch doktorant, O'zbekiston milliy universiteti

E-mail: nilufarmagistr@gmail.com, ORCID: 0000-0002-0151-5052

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d R.Yusupova taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF LITERARY DISCOURSE

Annotation

This article highlights the scientific-theoretical foundations and modern methodological approaches to the psycholinguistic study of literary texts. The research provides a comparative analysis of the fundamental theories of scholars such as L. Vygotsky, A. Leontiev, A. Luria, and N. Zhinkin, alongside cognitive-semantic approaches in Uzbek linguistics. Using an excerpt from Ulugbek Hamdam's short story "Distant Dilnura" as a case study, the mechanisms of text decoding, the emergence of cognitive dissonance, and the formation of aesthetic reactions are practically demonstrated. The article serves to reveal the nature of the text as a product of "internal code" and "speech activity."

Key words: Psycholinguistics, literary text, aesthetic reaction, cognitive dissonance, speech activity, internal code, decoding, recipient, author's consciousness.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Аннотация

В данной статье освещаются научно-теоретические основы и современные методологические подходы к психолингвистическому исследованию художественного текста. В исследовании проводится сравнительный анализ фундаментальных теорий таких ученых, как Л. Выготский, А. Леонтьев, А. Лурья и Н. Жинкин, с когнитивно-семантическими подходами в узбекском языкознании. На примере отрывка из рассказа Улугбека Хамдама «Далекая Дильнур» практически доказаны механизмы декодирования текста, возникновения когнитивного диссонанса и эстетической реакции. Статья служит раскрытию природы текста как продукта «внутреннего кода» и «речевой деятельности».

Ключевые слова: Психолингвистика, художественный текст, эстетическая реакция, когнитивный диссонанс, речевая деятельность, внутренний код, декодирование, реципиент, сознание автора.

BADIY MATNNI PSIXOLINGVISTIK TADQIQ QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy matnni psixolingvistik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari va zamonaviy metodologik yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqotda L. Vigotskiy, A. Leontyev, A. Luriya va N. Jinkin kabi olimlarning fundamental nazariyalari va o'zbek tilshunosligidagi kognitiv-semantik yondashuvlar tahlil qilingan. Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasidan olingan parcha misolida matnni dekodlashtirish, kognitiv dissonans va estetik reaksiya hosil qilish mexanizmlari amaliy jihatdan isbotlangan. Maqola matnning "ichki kod" va "nutqiy faoliyat" mahsuli sifatidagi tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Psixolingvistik, badiiy matn, estetik reaksiya, kognitiv dissonans, nutqiy faoliyat, ichki kod, dekodlashtirish, resipient, muallif ongi.

Kirish. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida matnga faqat statik struktura emas, balki dinamik jarayon sifatida qarash ustuvorlik kasb etmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida kognitiv va psixolingvistik yo'nalishlar asoschisi Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "Lisoniy faoliyatni faqat til tizimi doirasida emas, balki inson ongi va tafakkuri bilan aloqadorlikda o'rganish davr talabidir" [6]. Darhaqiqat, badiiy adabiyot orqali inson ruhiyatini, milliy mentalitetni va tilning yashirin imkoniyatlarini o'rganishda psixolingvistik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi badiiy matnni psixolingvistik tahlil qilishning nazariy bazasini tizimlashtirishdan iborat. Matnni psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish an'anaviy tilshunoslik metodlarining tilning jonli muloqot vositasi ekanligini tushuntirib bera olmasligi ehtiyojidan vujudga keldi. O'z navbatida bu ehtiyojlar bir nechta fundamental qismlarga bo'linadi. Ular quyidagilardan iborat: birinchida, an'anaviy tilshunoslik

matnni tugallangan, qog'ozdagi statik lisoniy birliklar majmuasi sifatida o'rganar edi. Biroq, matn real hayotda muallifning ongi va kitobxonning idroki o'rtasidagi ko'prikdir. Matnning yaratilishi va tushunilishi - bu dinamik ruhiy jarayon bo'lib, uni faqat grammatika qoidalari bilan tushuntirib bo'lmaydi. Ikkinchidan, Badiiy matnni tahlil qilishda "Yozuvchi nima demoqchi edi?" va "O'quvchi nimani tushundi?" degan savollar doimo dolzarb bo'lib kelgan. Bu yondashuv matnning o'quvchi ruhiyatiga, his-tuyg'ulariga va dunyoqarashiga qanday ta'sir qilishini ilmiy asoslab beradi. Uchinchida, inson nutqni qanday hosil qiladi va qanday qabul qiladi? Bu jarayonlar miyaning qaysi qismlari va qanday mental harakatlar bilan bog'liq? Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, psixolingvistik nutqiy faoliyat mexanizmlarini modellashtirish ehtiyoji tufayli vujudga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida psixolingvistik jihatdan badiiy matnni tadqiq

etish XX asrning o'rtalaridan kuchaydi. Bu yo'nalishda maktab yaratgan va fundamental nazariyalarni ilgari surgan asosiy olimlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Xususan, bu sohada ulkan yutuqlarga erishgan L. Vigotskiy [1] matnni nutqiy faoliyat mahsulini va "muallif ongi - matn - respient ongi" zanjiri sifatida o'rgangan. U badiiy matnning psixologik ta'sir kuchi va "estetik reaksiya" tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Uning "San'at psixologiyasi" asari badiiy idrokni tushinishda poydevor hisoblanadi. L. Vigotskiy badiiy matnni shunchaki til birliklarining jamlanmasi emas, balki ta'sir kuchiga ega bo'lgan "psixologik qurol" sifatida baholagan.

Nutqiy faoliyat nazariyasi asoschisi hisoblangan A. Leontyev [2] esa matnni idrok etishni murakkab psixik jarayon sifatida tahlil qilgan. Psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan hisoblanadigan "kodlash" va "dekodlash" jarayonlari bevosita A. Leontyev tadqiqotlari bilan bog'lanadi. A. Leontyev matnni nutqiy harakat mahsulini sifatida baholaydi. U matnni "ichki nutq"dan "tashqi nutq"ga o'tish jarayoni sifatida o'rgangan. Uning fikricha, matnni tushunish uchun respient muallif bosib o'tgan yo'lni (fikrdan so'zga qarab) teskari tartibda (so'zdan fikrga qarab) bosib o'tishi kerak.

Rus psixolingvistika maktabining yorqin vakillaridan A. Luriya neyropsixolingvistik nuqtai nazaridan matnni tushunish va uning miyadagi in'ikosi mexanizmlarini o'rgangan. U psixolingvistika va neyrolingvistikaning asoschilaridan biri sifatida badiiy matnni tahlil qilishda mutlaqo yangi - neyropsixologik yondashuvni boshlab bergan.

N. Jinkin badiiy matnning psixolingvistik tahlilida "Nutq mexanizmlari" va "Ichki kod" nazariyalari bilan fundamental o'rin tutadi. N.Jinkin eng mashhur g'oyasi shundaki, inson miyasida fikrlar so'zlar shaklida emas, balki vizual obrazlar, sxemalar va hissiyotlardan iborat maxsus "ichki kod"da saqlanadi. Badiiy matn o'quvchi ko'z o'ngida "harakatli tasvir" kabi jonlanishning nazariy asosi N.Jinkin aytgan UPK (Universal-predmet kodi) mexanizmidir.

Badiiy matnni ulardagi emotsional-semantik dominantaga ko'ra tasnifini V.P. Belyaninning tadqiqotlarida [5] ko'rishimiz mumkin. Uning yondashuvi bo'yicha, har bir matn turi muayyan dunyoqarashni va psixologik holatni aks ettiradi. Quyida V.P. Belyanin taklif etgan matn turlarining batafsil tasviri va ularni aniqlash metodikasi keltirilgan. Muallif asardagi dominant his-tuyg'u va ishlatilgan leksika asosida matnlarni bir necha guruhga ajratadi:

"Yorug'" matnlar: bunday matnlarda dunyo go'zal, tartibli va quvnoq tasvirlanadi. Leksikada rang-baranglik, musaffollik va ijobiy hislatlarni ifodalovchi so'zlar ustunlik qiladi.

"Qorong'u" matnlar: bu turdagi matnlarda tushkunlik, xavotir va qo'rquv hissi hukmron. Jumalalar ko'pincha qisqa va hissiy jihatdan og'ir bo'ladi.

"Shiddatli" matnlar: voqealar rivoji juda tez, qahramonlar faol harakatda bo'lgan matnlar. Ularda fe'llar va harakatni bildiruvchi so'zlar ko'p uchraydi.

"Falsafiy" matnlar: insonning ichki dunyosi, hayotning mazmuni va ekzistensial muammolar tahlil qilingan matnlar. Bu turdagi matnlarda abstrakt tushunchalar va mushohadali leksika ko'p bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida tizimli yondashuv asoschisi sifatida A. Nurmonov [7] til va nutq munosabatini psixolingvistik aspektida tahlil qilgan. A.Nurmonov tilni imkoniyat, nutqni esa o'sha imkoniyatning voqelanishi deb hisoblagan. U lisoniy birliklarning nutqda namoyon bo'lishida inson ongining rolini alohida ta'kidlagan.

O'zbek tilshunosligining zamonaviy bosqichida badiiy matnni psixolingvistik, kognitiv va neyrolingvistik jihatdan tadqiq etayotgan olimlar safi kengayib bormoqda. Jumladan, M.Kurbanova [8] matn nazariyasi va uning interpretatsiyasi kabi dolzarb masalalari bilan shug'ullanmoqda. A.Akbarov

[11] ikkinchi tilni o'zlashtirish va matnni idrok etishning kognitiv mexanizmlari ustida ishlaydi. Yosh tadqiqotchilardan M.Homidova [12] badiiy matnni idrok etishda intertekstuallik hodisasi bo'yicha salmoqli ishlarni amalga oshirgan bo'lsa, S.Saatova lisoniy shaxs tavsifi va tadqiqi bilan shug'ullanmoqda. Bu olimlardan tashqari, zamonaviy o'zbek tilshunosligida badiiy matnning psixolingvistik tabiati N. Jumayeva, Z. Teshaboyeva va U. Qosimova kabi tadqiqotchilarning ishlarida yangicha talqinda namoyon bo'lmoqda. Ularning tadqiqotlarida an'anaviy struktur tahlildan eksperimental-psixolingvistik va kognitiv-modellashtirish metodlariga o'tilganligi kuzatiladi. Bu esa badiiy matnni shunchaki lisoniy birlik emas, balki murakkab kognitiv-kommunikativ hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot badiiy matnni idrok etish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: Antropotsentrik yondashuv - tadqiqot markazida matn emas, balki "til egasi" (muallif va respient) turadi. Assotsiativ eksperiment metodi - badiiy matndagi tayanch tushunchalarning o'quvchi ongida qanday in'ikos topishini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bu metod orqali so'zning lisoniy ma'nosidan tashqari uning "psixologik ma'nosi" aniqlanadi. Muallif individual uslubini aniqlashda matnning statistik tahlili metodi - badiiy matndagi emotsional-ekspressiv birliklarning takrorlanish chastotasi va ularning asarning umumiy psixologik fonini shakllantirishdagi o'zni tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnni psixolingvistik tahlil qilishning ilmiy nazariy asoslarini amaliy jihatdan tasdiqlash maqsadida Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilmura" hikoyasi tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Tahlillar biz ilgari surgan uchta metodologik yo'nalishda amalga oshirildi:

"- Dilmura... - Bugun biz Dilmura uchun... A? Nima deding otini?!.. - kutilmaganda Kozimjonning qadahi qo'lidan sirg'alib tushib chil-chil sindi. O'zining bo'lsa quti o'chib mum tishladi. - Dilmura degin?.. - boshini ko'tardi Kozimjon yordamchisiga yomon qarab. - Mayli... Bo'pti... Dilmura bo'lsa, Dilmura-da!.. - Kozimjon yarimlab qolgan shishani qo'lga olarkan, o'rnidan turdi, - Dilmura bo'lsa, Dilmura uchun ichamiz!.. - u bir ko'tarishida tin olmay shishani bo'shatdi."

Yuqorida keltirilgan parcha hikoyaning to'liq manti asosida assotsiativ eksprementga tortildi. "Dilmura" ismi besh marotaba bir o'rinda takrorlanishi o'quvchini assotsiativ mushohadaga chorlaydi. Birinchi stimol qishloqdagi vafot etgan, pokiza go'dak Dilmura bo'lsa, ikkinchi stimulla shahardagi restoranda pul evaziga raqsga tushadigan raqqosa Dilmura. Natijada o'quvchi ongida bu ikki obraz to'qnashadi. Kognitiv dissonans, ya'ni "ongdagi qarama-qarshilik" yuzaga keladi. Resipient bu qarama-qarshilikni hal qilishga urinadi, natijada qahramonning naqadar tubanlikka tushganini chuqur his qiladi. N. Jinkin nazariyasiga ko'ra, bu so'z matnning "nominativ markazi"ga aylanadi. Ismning qisqa vaqt ichida ko'p takrorlanishi qahramonning ongida kuchli ruhii shok holati sodir bo'lganini ko'rsatadi. Bu shunchaki ism emas, balki qahramonni "uyg'otib yuborgan" lisoniy impulsdir.

Ushbu matn parchasini L.Vigotskiyning badiiy asarni o'rganishdagi "estetik reaksiya" tushunchasi asosida tahlil qilganimizda matn strukturasi o'quvchida qarama-qarshi hislarni uyg'otishi va yakunda ruhii yengillikka olib kelishini kuzatishimiz mumkin. Hikoya oxirida Kozimjonning qadahi sinishi va uning "mum tishlashi" - bu matndagi affekt nuqtasi. L. Vigotskiy bo'yicha, bu yerda "ikki xil Dilmura" (poklik va tubanlik) o'rtasidagi ziddiyat o'quvchida estetik shok yaratadi. Bu o'rinda o'quvchi Kozimjon bilan birga o'sha qadahnii "sindiradi". Bu yerda matn shunchaki axborot bermaydi, balki

o'quvchi ruhiyatida portlash hosil qiladi. L.Vigotskiy aynan shuni asarning psixologik maqsadi deb hisoblagan. Shu o'rinda A.Leontevning "Fikrdan so'zga va so'zdan fikrga" nazariyasi asosida tahliliga to'xtalamiz. A. Leontev nutqni "faoliyat" deb hisoblaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, yozuvchi o'z niyatini matnga kodlaydi, o'quvchi esa bu harakatni teskari tartibda amalga oshiradi. A. Leontev matnning tushunishni "muallif bilan hamkorlikdagi faoliyat" deb ataydi. Parchadagi "Dilnura bo'lsa, Dilnura uchun ichamiz!" jumlasida A.Leontevning nutqiy faoliyat nazariyasiga ko'ra, o'zida aniq pragmatik maqsadni tashuvchi "nutqiy harakat". Bu jumla ortida Kozimjonning aybdorlik hissini yashirishga bo'lgan psixologik harakati yotibdi. Muallif Kozimjonning ichki inqirozini "shishani bo'shatish" va "qadah sinishi" kabi tashqi harakatlarga kodlagan. O'quvchi esa bu tashqi harakatlarni ko'rib, uning ichki "motivi"ni anglab yetadi.

Xulosa va takliflar. Badiiy matnning psixolingvistik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Badiiy matn shunchaki informativ birlik emas, balki resipient ongidagi kognitiv strukturalarni faollashtiruvchi murakkab psixolingvistik hodisadir.

L.Vigotskiy, A.Luriya, N.Jinkin va A.Leontev kabi olimlarning nazariyalari matnning "muallif - matn - o'quvchi" zanjiri asosida yaxlit tizim sifatida o'rganish uchun metodologik baza bo'lib xizmat qiladi.

Ulug'bek Hamdamning "Uzoqdagi Dilnura" hikoyasi misolida ko'rildiki, matndagi lisoniy birliklar o'quvchida kognitiv dissonans va estetik reaksiya uyg'otishning asosiy vositasidir.

O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, Sh.Safarov va boshqa olimlar tomonidan shakllantirilgan tizimli va kognitiv yondashuvlar zamonaviy badiiy matnning psixolingvistik modellashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: Искусство, 1987.
2. Леонтьев А.А. Психоллингвистика. – М.: Смысл, 1999.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1979.
4. Жинкин Н.И. Механизмы речи. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1958.
5. Белянин В.П. Психоллингвистический анализ текста. – М.: Изд-во МГУ, 1988.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademya, 2012.
8. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.
9. Shahobiddinova Sh. O'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma. – Andijon: ADU, 2012.
10. Hamdam Ulug'bek. Uzoqdagi Dilnura (Hikoyalar to'plami). – Toshkent: Sharq, 2015.
11. Akbarov A. Psycholinguistics: Theory and Practice. – Sarajevo: IBU, 2011.
12. Homidova M. Badiiy matn interpretatsiyasida intertekstuallik. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2020.
13. Teshaboyeva Z. Badiiy diskursning kognitiv-pragmatik xususiyatlari. Filol. fanlari dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021.